

10. Maniyozov, O., Bozorqulov, A., & Isomiddinova, O. (2023). Ta'lim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarning yechimini maple dasturida topish. Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, (1), 190-202.

11. Botirova, N., & Alimjanova, M. (2022). TALABALARNING OQUV-BILISH FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 65-72.

12. Botirova, N. (2023). DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL-COGNITIVE COMPETENCE ON THE BASIS OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *Modern Science and Research*, 2(6), 563-567

13. Jo'raeva, D. (2022). Buziladigan oddiy differentsial tenglama uchun birinchi chegaraviy masala. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(13), 456-461.

SHAXS ESTETIK FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITA SIFATIDA

(Phd), dots. Aliqulov Quvvat Haqnazarovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

q.aliqulov@uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqotning maqsadi shaxs estetik faolligining shakllanishda informatsion texnologiyalarni shaxsni tarbiyalab yangicha tafkkur asosida innovatsion va transformatsion jihatlarining o'ziga xosligi va uning hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, estetik faoliyat, visual va ovoz effektlari, yuqori sifatli kontent, Samartfonlar, qaramlik, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini ifoda etish.

Axborot texnologiyalari shaxsning estetik faoliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bizga san'at, musiqa, fotosuratlar, videolar, visual va ovoz effektlarini yaratish va tarqatish, shuningdek, ijobiy ishimizni boshqa odamlar bilan muloiqot qilish va baham ko'rish imkonini beradi.

Shaxsning estetik faoliyatini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi asosiy muammolardan biri bu yuqori sifatli kontentning mavjudligidir. Internetda estetik didning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan juda ko'p ma'lumotlar va past sifatli materiallar mavjud. Shuning uchun, yuqori sifatli tarkibni qanday tanlashni o'rganish muhimdir.

Yana bir muammo- axborot texnologiyalariga qaramlik. Samartfonlar, kompyuter va boshqa qurilmalardan tez-tez foydalanish real hayotdan uzilib qolishga, odamlar bilan muloqotning cheklab cheklanishiga va anaologiya san'at turlariga qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Shu bois, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishni o'rganish, virtual va real dunyoda o'tkazilgan vaqtni muvozanatlash zarur.

Informatsion texnologiyalar-estetik global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Sizning idealingiz asosan qaysi sohalarida aks etadi?", degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi[1-2].

Bizning estetik idealim asosan axborot texnologiyalari, san'at va dizayn sohalarida namoyon bo'ladi. Biz yoshlarning o'sish uchun ma'lumot olish, almashish va foydalanishga yordam beradigan vositalarni yaratishga mexanizmlarini ishlab chiqishimiz zarur. Bundan tashqari, biz mahsulotlarimizni estetik jihatdan yoqimli va ulardan foydalanish yoqimli bo'lish tomonlarini ta'minlamog'imiz kerak.

Raqamli tafovut muammosini ham aytib o'tish joiz. Ba'zi odamlar moliyaviy cheklovlar yoki geografik masofa tufayli axborot texnologiyalaridan foydalana olmaydi. Bu shaxsning estetik faolligini rivojlantirish uchun tengsiz imkoniyatlar yaratadi va bu tangsizlikni kamaytirish yo'llarini izlashni talab qiladi.

Umuman olganda, axbobot texnologiyalari shaxsning estetik faolligini shakllantirish uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratdi, lekin ulardan ongli va ma'suliyatli foydalanishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, yuqori sifatli kontetni tanlashni o'rganish, virtual va real dunyoda o'tkaziladigan vaqtni muvozanatlash va raqamli tafovutni kamaytirish ustida ishlash kerak.

"Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini hatto tashqi ko'rinishini ham tubdan o'zgartirishga olib keldi"[2-177]

Shaxsning estetik faolligini shakllantirishda axborot texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Mavjudligi va mazmuni xilma-xilligi: Axborot texnologiyalari musiqa, kino, tasviriy san'at, adabiyot va boshqalar kabi axborot va san'atning har xil turlaridan keng foydalanish imkonini beradi. Inson o'zi yoqtirgan va qiziqtirgan narsalarni tanlash imkoniyatiga ega.

2. O'z-o'zini ifoda etish imkoniyati: Axborot texnologiyalari yordamida inson asarlarini yaratish va boshqalar bilan bo'lishishi mumkin. Masalan, maxsus dasturlar yoki ilovalar yordamida musiqa yoki fotosuratlar yaratish.

3. Tajriba almashish: Axborot texnologiyalari odamlarga bir-biri bilan muloqot qilish, badiiy asarlardan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashish, ularni muhokama qilish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu estetik idrokning rivojlanishiga hissa qo'shadi va shaxsga o'z ufqlarini kengaytirish imkonini beradi.

4. O'qish imkoniyati: Axborot texnologiyalari shaxsning san'at va uning tarixini o'rganishi, bu boradagi ko'nikma va bilimlarini rivojlantirish mumkin bo'lgan ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beradi.

5. Shaxsiylashtirish: Axborot texnologiyalari kontenti shaxsiy imtiyozlar va qiziqishlarga moslashtirish imkonini beradi. Bu shaxsiy estetik makonni yaratishga va o'z uslubingizni rivojlantirishga yordam beradi.

6. Globallashtirish: Axborot texnologiyalari geografik va madaniy chegaralarni qisqartirib, insonga butun dunyodan turli san'at turlaridan foydalanish imkonini beradi.

Bu uning madaniy tajribasini kengaytiradi va estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, axbobot texnologiyalari axborotning haddan tashqari yuklanishi, virtual olamga qaramlik yoki tashqi dunyo bilan haqiqiy aloqani yo'qotish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun axborot texnologiyalaridan muvozanatli va ongli ravishda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buxdu.Uz <https://elib.buxdu.uz>item> estetik tarbiya uning vazifalari, vositalari, tahdidlar va "ommaviy madaniyat".

2. Abdulla sher, bahodir husanov/ estetika.uslubiy qullanma. Ikkinchi nashri.toshkent o'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2010y.191b

OILADA O'SMIR YOSHDAGI BOLLARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

(PhD), Norbekova Barno Shavkatovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Beginqulova Nigora Botir qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasi borasida mutafakkirlarning qarashlari va ularning pedagogik-psixologik yondoshuvlari tahlil qilinib, oiladagi o'zaro munosabatlar va bu jarayonda o'smir yoshdagi farzandlarda kechadigan hissiy xolatlar, oilaviy tarbiyada yo'l qo'yilayotgan xatolar mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabat, axloqiy taraqqiyot, faollik, mustaqillik qat'iyatlilik, tirishqoqlik, sabr- toqatlilik, intizomlilik, o'z- o'zini baholash, qo'pol muomila.

Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi.

"Oila o'ziga xos ijtimoiy birlik bolib, uning asosida er-xotin ittifoqi qarindoshlilik munosabatlari, maishiy hayot birligi axloqiy va huquqiy mas'uliyat hamda jamiyat tomonidan o'rnatilgan ota-onalarning bolalarni tarbiyalashi bo'yicha va farzandlarining o'z ota-onalari uchun muayyan majburiyatlari turadi"[1].

Sharqda qadim qadimdan oila muqaddas sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishilgan. XI asrningning buyuk mutafakkirlari va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig - saodatga boshlovchi bilim" kitobida va undan keyingi qator asarlarida oildagi bola tarbiyasi qanchalik muhimligini takidlab o'tgan. Uning fikricha farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz